XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 17-oktabr VI-86-122-12-0-K/24 Xorazm viloyati

Viloyatda qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni ommaviy oferta shartnomasi asosida amalga oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvarda “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-sonli Farmoni 8-bandining ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining 2024-yil 14-avgustdagi 01-01/14-2183-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xorazm viloyatining Urganch shahri va Urganch tumanida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to‘plash me’yorlarini hamda ommaviy oferta bo‘yicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to‘lov summalari 1-ilovaga hamda viloyatning shahar (tuman)larida (Urganch shahri va Urganch tumanidan tashqari) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to‘plash me’yorlarini hamda ommaviy ofertada bo‘yicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to‘lov summalari 2-ilovaga muvofiq belgilansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvarda “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-sonli Farmonining 8-bandiga muvofiq viloyatda mazkur qaror kuchga kirgan kundan boshlab, barcha sanitar tozalash korxonalari tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar ommaviy oferta shartnomasi asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

4. Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi (O‘.Matqurbonov), “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Raximberganova)ga mazkur qaror doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni televideniye, gazeta, internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi R.Sherjanov zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



RAXIMOV JO‘RABEK RAXIMOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2024-yil 17-oktabrdagi
VI-86-122-12-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyatining Urganch shahri va Urganch tumanida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi toʻplash meʻyorlarini hamda ommaviy ofertada boʻyicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik toʻlov summalari

T/r	Qattiq maishiy chiqindi hosil boʻladigan obyektlar	Hisob birlik	Bir hisob birlik uchun bir kunda hosil boʻladigan maishiy chiqindi miqdori, gramm *	1 m^3 chiqindini olib chiqib ketganlik uchun toʻlov, soʻm **	Maishiy chiqindining xajmiga nisbatan ogʻirligi, kg/m^3 ***	1 kg maishiy chiqindini olib chiqib ketganlik uchun toʻlov, soʻm	Bir hisob birlik uchun chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik toʻlov summasi, soʻm
1.	Maʻmuriy va boshqa davlat muassasalari (tashkilotlar, ofislar, idoralar, banklar va b.)	1 ta xodim	995	80 640	445	181,2	5 408,8
2.	Mehmonxona, umumiy yotoqxona, dala hovli va b.	1 ta oʻrin	1 161				6 311,2
3.	Maktabgacha taʻlim muassasalari (bolalar bogʻchasi, yasli va b.)	1 ta oʻrin	339				1 842,8
4.	Maktab, kollej, oliy taʻlim va boshqa oʻquv muassasalari	1 ta oʻquvchi, student	306				1 663,4
5.	Poliklinika	1 ta tashrif buyuruvchi	81				440,3
6.	Shifoxona, sanatoriya, pansionat, davolash-profiliktika muassasalari va b.	1 ta koyka-oʻrin	357				1 940,7
7.	Bozorlar, supermarketlar, gipermarketlar, oziq-ovqat doʻkonlari, yarmarkalar, xoʻjalik tovarlari doʻkonlari, savda pavilonlari, kioskalar, savdo chodirlari va b.	1 m^2 savdo maydoni uchun	358				1 946,1
8.	Vokzallar, avtovokzallar, aeroportlar va b.	umumiy maydonning	128				695,8

		1m^2 qismida					
9.	Umumiy avtoturargohlar, avtoyuvish joylari, yonilgʻi quyish shaxobchalari, shaxsiy avtoturargohlar va b.	1 ta avto oʻrin	1 103				5 995,9

Havolalar: * *Xorazm viloyati hokimining 2020-yil 28-fevraldagi 81q-sonli qarori.*

** *Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 3-maydagi 185-12-0-Q/24-sonli qarori.*

*** *Oʻzbekiston Respublikasi sharoitida aholi punktlari hududlarini saqlash va obodonlashtirish boʻyicha sanitariya qoidalari va normalari. 2011-yil 27-avgust. SanQvaN 0329-16-sonli.*

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2024-yil 17-oktabrdagi
VI-86-122-12-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Xorazm viloyatining shahar va tumanlarida (Urganch shahri va Urganch tumanidan tashqari) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi toʻplash meʻyorlarini hamda ommaviy ofertada boʻyicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik toʻlov summalari

T/r	Qattiq maishiy chiqindi hosil boʻladigan obyektlar	Hisob birlik	Bir hisob birlik uchun bir kunda hosil boʻladigan maishiy chiqindi miqdori, gramm *	1 m3 chiqindini olib chiqib ketganlik uchun toʻlov, soʻm **	Maishiy chiqindining xajmiga nisbatan ogʻirligi, kg/m^3***	1 kg maishiy chiqindini olib chiqib ketganlik uchun toʻlov, soʻm	Bir hisob birlik uchun chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik toʻlov summasi, soʻm
1.	Maʻmuriy va boshqa davlat muassasalari (tashkilotlar, ofislar, idoralar, banklar va b.)	1 ta xodim	995	64 400	445	144,7	4 319,3
2.	Mehmonxona, umumiy yotoqxona, dala hovli va b.	1 ta oʻrin	1 161				5 039,9
3.	Maktabgacha taʻlim muassasalari (bolalar bogʻchasi, yasli va b.)	1 ta oʻrin	339				1 471,6
4.	Maktab, kollej, oliy taʻlim va boshqa oʻquv muassasalari	1 ta oʻquvchi, student	306				1 328,3
5.	Poliklinika	1 ta tashrif buyuruvchi	81				351,6
6.	Shifoxona, sanatoriya, pansionat, davolash-profiliktika muassasalari va b.	1 ta koyka-oʻrin	357				1 549,7
7.	Bozorlar, supermarketlar, gipermarketlar, oziq-ovqat doʻkonlari, yarmarkalar, xoʻjalik tovarlari doʻkonlari, savda pavilonlari, kioskalar, savdo chodirlari va b.	1 m^2 savdo maydoni uchun	358				1 554,1
8.	Vokzallar, avtovokzallar, aeroportlar va b.	umumiy maydonning	128				555,6

		1m^2 qismida					
9.	Umumiy avtoturargohlar, avtoyuvish joylari, yonilgʻi quyish shaxobchalari, shaxsiy avtoturargohlar va b.	1 ta avto oʻrin	1 103				4 788,1

Havolalar: * *Xorazm viloyati hokimining 2020-yil 28-fevraldagi 81q-sonli qarori.*

** *Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 3-maydagi 185-12-0-Q/24-sonli qarori.*

*** *Oʻzbekiston Respublikasi sharoitida aholi punktlari hududlarini saqlash va obodonlashtirish boʻyicha sanitariya qoidalari va normalari. 2011-yil 27-avgust. SanQvaN 0329-16-sonli.*